



УДК: 821.512.133 (095)

Surayyo GAFUROVA,
Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida doktoranti
E-mail: sqafurova@gmail.com

Filologiya fanlari doktori G.Roziqova imzosi asosida

ABOUT THE HISTORICAL STEM (On the example of some words from the work “Tawarikh guzida – Nusratnoma”)
Annotation

One of the main tasks in world linguistics is to study the language of ancient written monuments, which are classic examples of every national language, and convey their content to today's generations. Historical study of any language phenomenon, based on primary sources, comparing the language of written monuments created in different periods of language development, determining the common and different features between them is considered one of the important tasks in world linguistics. This article also focuses on the historical root and its specific features, and analyzes the structural composition of the Turkish word.

Key words: stem, word form, word formation, structure, form and content, word meaning, suffix, grammatical form, lexeme, word, basis, artificial word, base.

ОБ ИСТОРИЧЕСКОЙ КОПЕ (На примере некоторых слов из произведения “Таварихи гузида – Нусратнома”)
Аннотация

Одной из главных задач мирового языкознания является изучение языка древних письменных памятников, являющихся классическими образцами каждого национального языка, и донесение их содержания до нынешних поколений. Историческое изучение любого языкового явления на основе первоисточников, сопоставления языка письменных памятников, созданных в разные периоды развития языка, определения общего и различного между ними, считается одной из важных задач мирового языкознания. В данной статье также уделяется внимание историческому корню и его специфическим особенностям, а также анализируется структурный состав тюркского слова.

Ключевые слова: основа, словоформа, словообразование, строение, форма и содержание, значение слова, суффикс, грамматическая форма, лексема, слово, основа, корень.

TARIXIY O'ZAK XUSUSIDA (“Tavorixi guzida – Nusratnoma” asaridagi ba'zi so'zlar misolida)
Annotatsiya

Jahon tilshunosligida har bir milliy tilning mumtoz namunalari bo'lgan qadimgi yozma yodgorliklar tilini ilmiy asosda o'rganish, ularning mazmunini bugungi avlodlarga aslidagidek yetkazish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o'rganish, birlamchi manbalarga asoslanish, til taraqqiyotining turli davrlarida yaratilgan yozma yodgorliklar tilini qiyoslash asosida ular orasidagi umumiy va farqli xususiyatlarni aniqlash dunyo tilshunosligidagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada ham tarixiy o'zak va uning o'ziga xos belgilariga alohida to'xtab o'tilgan bo'lib, turkiy so'zning struktur tarkibi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: o'zak, so'zshakl, so'z yasalishi, struktura, shakl va mazmun, so'z ma'nosi, qo'shimcha, grammatik shakl, leksema, so'z, asos, yasama so'z, negiz.

Kirish. Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibi va grammatik qurilishi uzoq davrlarning mahsuli bo'lib, tarixiy taraqqiyot davomida ko'p so'zlar tarkibida, grammatik formalarda va gap qurilishida ma'lum o'zgarishlar ro'y berdi. Davrlar o'tishi bilan, ma'lum guruh so'zlarning tashqi tovush tomonida va ichki ma'no tomonida ham o'zgarishlar bo'ldi. Bu ayniqsa, so'zning tarkibiy strukturasida emas, uning ma'no tomonida yaqqol o'z ifodasini topgan. Bu hodisa muayyan so'zning talaffuzi va yozilishi nuqtai nazaridan oson va moddiylashishga qulay bo'lishi, shuningdek, tilning tejamkorlik qonunlari hisobiga yuz beradi.

Ayni damda yurtimizda «...matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgani» bu boradagi ilmiy izlanishlar ko'lamini yanada kengaytirishga asos bo'lmoqda[1].

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lgan so'z yasovchilarning aksariyati o'zbek tili tarixida ham shu vazifani bajargan. Biroq o'zbek tili tarixida yangi so'z yasash uchun asos bo'lgan ko'p so'zlar bu qobiliyatini yo'qotgan.

Ushbu maqolada yangi so'z yasashga asos bo'lgan ana shunday so'zlar, ya'ni tarixiy o'zak haqida fikr yuritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Har bir tilda bir qator tarixiy so'zlar qatorida maxsus shakllar ham saqlanib boradi. Bu kabi shakllar til taraqqiyotining u yoki bu bosqichida ma'lum funksiyani bajarib, keyingi davrlarda o'z vazifasini yo'qotadi yoki bu vazifa boshqa belgiga yuklatiladi. Hozirgi o'zbek tili grammatik qurilishi va so'z tarkibini tahlil qilganda, qadimgi davrlar tili uchun xos bo'lgan, ammo hozirgi kun nuqtai nazaridan iste'moldan chiqqan shakllar ham ko'zga tashlanadi, ular ko'proq so'z yasalishi va so'z o'zgarishi hodisalarida kuzatiladi. Tildagi bu muhim masalani o'rganish hozirgi o'zbek tilshunosligi uchun, ayniqsa o'zbek tili tarixi uchun ham amaliy, ham nazariy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Tarixiy o'zak, umuman, tarixiy so'z yasalish masalalari professor A.G'ulomovning qator ishlarida batafsil yoritilgan[2].

Tahlil va natijalar. Tarixiy o'zak bu o'zbek tili tarixining ma'lum bosqichida so'z yasash uchun asos bo'lgan va hozirgi kunda bu vazifani yo'qotgan so'zlardir. Bu xil yasalish shu bilan xarakterlanadiki, so'z yasashga asos bo'lgan qism bilan so'z yasovchi qo'shimcha birikib, ular o'rtasidagi aloqa sezilmas darajaga kelib qoladi. Hozirgi o'zbek adabiy

tili lug'at boyligida ular bir so'z, bir leksik birlik sifatida tasavvur qilinadi. Ularni faqat tarixan o'rganib chiqilsagina o'zak-negizlarga ajratish mumkin bo'ladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilidagi yaproq so'zi "Tavorixi guzida – Nusratnoma"da yapurg'oq shaklida uchrasa[3], A.Navoiy asarlarida "tushmasa yafrog'idin o't bog' aro" kabi yafrog' ko'rinishida qo'llangan[4]. Hozirgi kunga kelib, bu so'zning yaproq ko'rinishi qoidalashtirildi[5].

Hozirgi o'zbek tilida bol o'zagi bilan so'z yasalmaydi. "Tavorixi guzida – Nusratnoma"da bu so'z qator so'zlarni yasash uchun asos bo'lgan. Masalan, bolg'a, bolta, balchiq kabi so'zlar bol o'zagidan yasalgan so'zlar hisoblanadi. Hatto balota, Balxash, Boltiq kabi Hind-Yevropa tillariga xos so'zlar ham shu asosdan yasalgan degan taxminlar bor.

Qut so'zi hozirgi o'zbek tilida qut-baraka tipidagi juft so'zlar tarkibida kelib, mustaqil qo'llanmaydi. Lug'at boyligimiz tarixida esa qut so'zi bilan yasalgan ko'plab leksemalarni uchramiz: qutqarmoq, qutulmoq, quti, qutlug' kabilar shular jumlasidandir. Qut so'zi o'tmishda baxt, boylik, baraka, saodat, jon kabi qator ma'nolarni anglatgan. Yuqoridagi qutqar, qutul so'zlarida jon, qutlug' so'zida baxt, quti so'zida esa boylik ma'nolari anglashilib turibdi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi qutadg'u so'zida qut baxt ma'nosida kelib, baxt-saodat keltiruvchi kitob ma'nosini anglatmoqda. Demak, qut so'zi hozirgi kunda yangi so'z yasamaydi hamda u yuqorida keltirilgan so'zlarda tarixiy o'zak vazifasini bajargan.

Xuddi shuningdek, tilimizdagi aldamoq so'ziga tub o'zak deb qaraladi, lekin "Tavorixi guzida – Nusratnoma"da uchraydigan ushbu aldamoq so'zidagi al qismi mustaqil so'z bo'lib, qadimda u hiyla ma'nosini anglatgan: Avchi qancha al bilsa, aziq ancha yo'l bilir. Devondagi ushbu maqolda al so'zi hiyla ma'nosini bildirib, -da fe'l yasovchisi -laning tarixiy variantidir.

Aytmoq so'zidagi ay, so'ramoq so'zidagi so'r qismlari ham tarixiy o'zak sanaladi. Chunki bu so'zlar "Tavorixi guzida – Nusratnoma" tarixiy yozma yodgorligida ay, so'r shakllarida uchraydi: Biliktin ayurman so'zimga ul. Aydim: Qilding ne uchun tark kabi. Ayt so'zi tarkibidagi -t qo'shimchasi ortirma nisbat, so'ra so'zidagi -a affiksi esa ravishdoshdir. Qamashmoq fe'li ham tarixan qama fe'lga -sh affiksining qo'shilishidan yasalgan. Qama o'zagi "Tavorixi guzida – Nusratnoma" yodnomasida keng ishlatilgan: Kunga boqsa, qo'z qamar – Quyoshga boqsa, ko'z qamashadi.

Tilda yasama so'zning negizi anglatgan leksik ma'no xiralashadi yoki yo'qoladi hamda shu yasama so'z iste'moldan tushib qoladi. Buning natijasida yasama so'z negizi tub so'z negiziga aylanadi. Masalan, qizil, yashil so'zlari tarixiy jihatdan fe'ldan yasalgan nisbiy sifatdir[6].

So'zning tovush tarkibidagi o'zgarishlar, ayrim tovushlarning tushib qolishi, boshqa tovushlar bilan almashinishi natijasida ham morfemalarning o'zaro munosabati o'zgarishi mumkin. Masalan, so'z va so'vchi so'zlarining o'zaro semantik bog'lanishi hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan sezilmaydigan darajaga kelib qolgan. -chi affiksining sav so'ziga o'g'uzcha sav so'z qo'shilishi orqali yasalgan so'vchi so'zining ma'nosi o'zi yasaliib chiqqan so'zning ma'nosidan ancha uzoqlashgan. Demak, so'z tarkibidagi tovush o'zgarishi ham morfologik qurilishning, morfemalar munosabatining o'zgarishiga olib kelgan.

Ista fe'li ham tarixiy jihatdan ikki morfemali negiz bo'lib, -ta/-da affiksi orqali iz negizidan yasalgan[7]. Tarixiy taraqqiyot jarayonida yasama so'z uchun asos bo'lgan qism – o'zakning tilning lug'at tarkibidan iste'moldan chiqishi ham kuzatiladi. "Nusratnoma"da uchraydigan yuqori, o'smoqchilab so'zlari bunga misol bo'ladi. Yuqori aslida balandlik, tepa ma'nosini anglatib, unga -aru, -garu jo'nalish kelishigi qo'shilgan. Hozirgi kunda bu leksemdagi o'zak ham, affiks ham iste'moldan chiqqan, mazkur so'zda o'zak va affiksning

o'zaro munosabati sezilmas holga kelib, bir so'z, bir leksik birlikka aylangan. O'smoqchilab so'zini ham qismlarga ajratish birmuncha qiyin.

Professor A.N.Kononov hozirgi o'zbek tilidagi nari ko'makchisini tarixan angaru so'zidan kelib chiqqanini ko'rsatadi[8]. Haqiqatan ham, angaru ko'makchisining tarkibi an-garu qismlaridan tashkil topib, u kishilik olmoshining an variantiga aylangan shaklidan hosil bo'lgan. Natijada an o'zagiga tarixan jo'nalish kelishigining -garu, -aru qo'shimchasi qo'shilishidan angaru shakli vujudga kelgan. Keyinchalik tildagi soddalashtirish va qulaylik qonunlari tufayli angaru so'zidan a va g tovushlari tushirilgan, so'z oxiridagi u tovushi i tovushiga aylanib, nari hosil bo'lgan.

Shuningdek, hozirgi o'zbek tilida qo'llanilayotgan affiksalar diaxronik (tarixiy) jihatdan tekshirilsa, ularning ko'pi dastlab mustaqil so'zlardan iborat bo'lgani, bu xil qo'shimchalar strukturasi ham qator fonetik o'zgarishlardan keyin, ular affiks shaklini olganini ko'rish mumkin: hozirgi o'zbek tilidagi -dir qo'shimchasi va -di zamon qo'shimchasi qadimgi turur so'zidan, -ta son yasovchi toq so'zidan, -cha affiksi choq mustaqil so'zidan kelib chiqqanligi tilshunolar tomonidan tan olingan[9].

Shu bilan birga, bu kabi hodisalar ma'lum qonuniyat zaminida vujudga kelib, shu qonuniyatga binoan tarixan qo'shma yoki so'z birikmasi shaklidagi qo'shimmalarning aksariyati ham so'nggi taraqqiyotda soddaga so'z shaklini oladi[10]. Bunday o'zgarishlar til tarixining biror bosqichida yuzaga keladi, hozirgi kunga kelib, ular yaxlit shakllarga aylanadi hamda sinxronik aspektda qo'shma yoki so'z birikmasi shaklidagi birikishdan hosil bo'lgani unutiladi. Masalan, to'la et - to'lat, yo'q et - yo'qot, yo'q bo'l - yo'qol, qo'l och - quloq, ko'k o't - ko'kat, sovuqqa qot - sovuqot, oyli tun - oy tun - oydin[11]. Yuqoridagi birikishlardan ko'rinadiki, ba'zi so'zlarda tovushlar o'zgarsa, ayrimlarida tovushlar tushirilgan, yana ba'zilarida so'zning oxirgi bo'g'inida tor unlilar o'rmini keng unlilar egallagan. Hammasida ham so'zning tarkibida qisqarishga intilish qonuniyati seziladi. Bu esa V.V.Radlovning "So'zning tarkibi uzaygan sari, unda qisqarishga intilish tendensiyasi kuchayadi", - degan fikri to'g'riligini yana bir bor isbotlaydi[12].

"Tavorixi guzida – Nusratnoma" asarida qadimgi turkiy til davridagi kabi qap, qop o'zaklaridan bir qancha so'zlar yasalgan. Masalan, qopqoq, qovurg'a (qap-ur-g'a), qopqa, qaboq, qopmoq kabi so'zlarning o'zagi qap bo'lib, o'ramoq, berkitmoq ma'nolarini anglatadi. Hozirgi kun nuqtai nazaridan yuqoridagi so'zlar ma'noli qismlarga ajratilmaydi, bir so'z, bir leksema deb qaraladi. Tarixan esa yuqoridagi so'zlar o'zak-negizlarga ajratiladi.

Tildagi ba'zi so'zlarni o'zak-negizlarga ajratish, ularning tarixan qanday so'zlardan yasalganini aniqlash ko'p so'zlarning haqiqiy ma'nosini, etimologiyasini topishga yordam berishi shubhasiz.

O'zbek tilida tarixan yasama so'z deb qaralgan so'zlar tarkibida ham ma'lum o'zgarishlar bo'ldi, bu o'zgarishlar turli sabablarga ko'ra: tovushlarni tejash, so'zning talaffuzini qulaylashtirish hisobiga ro'y berdi. Masalan, tuman so'zi tim qora so'zidan yasaliib, unga -an qo'shimchasi qo'shilganda tim so'zi tarkibidagi i so'zni qulay talaffuzi evaziga u unlisiga almashdi.

Tarixiy o'zak hozirgi o'zbek tilidagi o'zak yasaliish modellari ko'ra farqlanmasa ham, o'zakning mustaqil yoki mustaqil emasligiga ko'ra farqli belgilarga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, tarixiy o'zakda o'zak bilan affiks shunday birikadiki, uni hozirgi kun nuqtai nazardan qismlarga ajratib bo'lmaydi, qismlardagi aloqa iplari uzilgan bo'ladi. Bundan tashqari, tarixiy o'zaklarning ko'pi hozirgi kunda mustaqil qo'llanmaydi, alohida holda biror ma'no anglatmaydi.

O'zbek tilida tarixan boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda ham ana shunday holatni uchratish mumkin. Bu xil so'zlarda o'sha tilning o'zida yasalib, so'ng o'zbek tiliga o'tgan. Bunga misol qilib, "Tavorixi guzida – Nusratnoma"dagi dushman, duchor, dushvor, dugona, dushanba, duragay kabi so'zlarni keltirish mumkin.

Yuqoridagi so'zlardagi du ikki ma'nosida kelib, tarixiy o'zak sanaladi.

Xulosa va takliflar. Xullas, tarixiy o'zak tarixiy hodisa bo'lib, uni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, birinchidan, ko'p so'zlarning haqiqiy ma'nosini to'g'ri aniqlasa, ikkinchidan, ularning morfologik tarkibini, o'zak va qo'shimchalarini diaxron planda tahlil qilishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.
2. Айюб Гуломовнинг илмий мероси. 1-4 китоблар. – Т.: Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети, 2005-2008.
3. Таварих-и гузида – Нусрат-наме. Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений к.ф.н. А.М.Акрамова. – Т.: Фан, 1967.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-том. – Т.: Фан, 1984. – Б. 599.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 115.
6. А.Муҳторов. Сўзнинг морфологик қурилишидаги ўзгаришлар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1984 йил, 1-сон. – Б. 25.
7. Ўша мақола. – Б. 24.
8. А.Н.Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М., 1960. – С. 284.
9. Ўзбек тили грамматикаси. 1-қисм. – Т., 1975. – Б. 80.
10. Ғ.Абдурахмонов. Ўзбек тили фонетикаси тарихидан. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1963. 2-сон. – Б. 22.
11. Ўзбек тили грамматикаси. 1-қисм. – Т., 1975. – Б. 80.
12. В.В.Радлов и духовная культура тюркских народов. Сборник трудов I международного интернет конференции. – Казань, 2012. – С. 69.